



**JA'HON TILSHUNOSLIGIDA ANTROPOMORFIK
METAFORALARNING MATN ASOSIDA TADQIQ
ETILISHI**

Hamdamov Haydar Azamatovich

*Toshkent Axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunosligida antropomorfik metaforalarning publitsistik matnlar asosida tadqiq etilishi tahlil qilinadi. Metaforalarning, xususan, antropomorfik metaforalarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstda qanday semantik va stilistik yuklama kasb etishi, ularning kognitiv va pragmatik funksiyalari ochib beriladi. Maqolada ingliz va rus tilshunosligidagi ilg'or nazariyalar — Lakoff va Jonsonning kontseptual metafora nazariyasi, Fokonye va Tyornerning konseptual qorishma nazariyasi hamda Arutyunova, Chudinov kabi olimlarning yondashuvlari asosida tahlillar berilgan. Publitsistik matnlar auditoriyaga ta'sir o'tkazuvchi vosita sifatida antropomorfik metaforalardan qanday foydalanganini ko'rsatib, ularning semantik imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *antropomorfik metafora, publitsistik matn, kognitiv tilshunoslik, pragmatika, konseptual metafora, tasviriy vosita*

Аннотация: *В статье рассматривается использование антропоморфных метафор в публицистических текстах в контексте мировой и узбекской лингвистики. Особое внимание уделяется семантическим и стилистическим особенностям таких метафор, их когнитивным и прагматическим функциям в социальной и политической коммуникации. Автор опирается на теории концептуальной метафоры Лакоффа и Джонсона, теорию концептуального смешения Фоконье и Тёрнера, а также работы Арутюновой и Чудинова. В статье анализируются примеры из узбекской прессы, где антропоморфные метафоры способствуют формированию общественного мнения и повышают выразительность текста.*

Ключевые слова: *антропоморфная метафора, публицистический текст, когнитивная лингвистика, прагматика, концептуальная метафора, выразительные средства*

Annotation: *This article explores the use of anthropomorphic metaphors in journalistic texts within the frameworks of global and Uzbek linguistics. The research highlights the semantic and stylistic significance of such metaphors, emphasizing*



their cognitive and pragmatic roles in socio-political discourse. Drawing upon conceptual metaphor theory by Lakoff and Johnson, conceptual blending theory by Fauconnier and Turner, as well as insights from Arutyunova and Chudinov, the study provides an in-depth analysis of metaphorical usage in Uzbek media. The findings illustrate how anthropomorphic metaphors enhance expressiveness and shape public perception in mass communication.

Keywords: *anthropomorphic metaphor, journalistic text, cognitive linguistics, pragmatics, conceptual metaphor, stylistic device*

KIRISH

Dunyoda metaforalar faqat badiiy matnlar emas, balki boshqa sohalarda ham faol qo'llanilishi ilmiy jihatdan keng o'rganilgan. Jamiyat tomonidan tasvirlangan antropomorfik metafora va taqqoslashlar doirasi inson hayotining kasbiy xususiyatlarini aks ettiradi. Muayyan yozuvchi nazarida ishbilarmonlar, baliqchilar, jangchilar, sartaroshlar, raqqoslar, musiqachilar, qo'shiqchilar va boshqa kasb egalari va ularning vakillari ham o'xshatish obyekti bo'lishi mumkin. Insonlar va hayvonlar orasidagi o'zaro aloqa ko'plab mualliflarning e'tiborini jalb qiladi. Yozuvchilarning tabiiy dunyo bilan inson o'zaro munosabatlarini tasvirlashda qo'llagan sevimli stilistik metodlaridan biri antropomorfik metafora bo'lib, u inson sifatlarining hayvonlarga ko'chishiga ham asoslanadi. Bunda antropomorfik metaforaning kengaytirilgan talqinidan foydalanadi, bu bizga antropomorfik xususiyatlarga (tashqi ko'rinish, jismoniy xususiyatlar, xulq-atvor, xarakter xususiyatlari, fikrlash tarzi, hayot tarzi va boshqalarga bog'liq bo'lgan hayvonga insoniy fazilatlarni uzatishning turli holatlarini umumlashtirishga imkon beradi).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Masalan, jahon tilshunosligida badiiy matnlar tahliliga doir ko'plab tadqiqotlarni ta'kidlash mumkin, jumladan, tadqiqotchilar J. Darrel asarlarida metaforani tahlil qilish asosida, u yaratilgan keng ko'lamli tasvirlarga duch keladi [1]. Darrellning antropomorfik metaforalari odatda vaziyatni, his-tuyg'ularni, tajribalarni va fantaziyalarni ifodalashda muallifning borliqqa munosabatiga asoslanadi. Ayrim tadqiqotchilar hayvonlarni ma'lum kasb egalari bilan taqqoslash asosida yaratilgan inson hayotining kasbiy va ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi antropomorfik metaforalarni o'rgangan. Taqqoslash hayvonning tabiiy rangiga asoslangan bo'lib, u bir xil ish kiyimiga yoki har qanday kasb yoki ijtimoiy maqomdagi odamlarning odatiy harakatlariga monand odatlarga o'xshaydi[2]. I.A. Arjanova o'z maqolasida ingliz tilidagi iqtisodiy nutqda antropomorfik metaforaning vazifalariga to'xtaladi [3]. Uning ta'kidlashiga ko'ra, hozirgi zamon ingliz iqtisodiy nutqidagi antropomorfik



metafora kabi stilistik jihatdan ta'sirchan vositalarni tadqiq etish masalalarini qamrab oladi.

Kognitiv tilshunoslikning so'nggi yillardagi tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, qadim zamonlardan beri olamning lisoniy manzarasi qayta yaratildi. Bunday o'zgarishlar tarixan ancha qisqa vaqtda yuzaga kelishi ham mumkin. Masalan, E.S. Abramova fikricha [4], zamonaviy rus ommaviy axborot vositalari nutqi Rossiya jamiyati oxirgi o'n yil davomida o'tgan ijtimoiy o'zgarishlar, ma'naviy, axloqiy va mafkuraviy izlanishlar yo'lini aks ettiradi. Ommaviy axborot vositalari tili, ularida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'nolarni tushunish va talqin qilishning ijtimoiy ustuvor tamoyillari, hamda ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy ahamiyatga ega ma'nolarni va baholashni yaratish, ko'paytirish orqali jamoat ongini boshqaradigan ijtimoiy-tartibga solish mexanizmi sifatida anglanadi.

A.V. Myasnikova, E.V. Alikinalarga ko'ra, metafora eng keng tarqalgan ko'chimlardan [5] biri bo'lib, qadim zamonlardan beri olimlar va madaniyat arboblarning e'tiborini tortdi [6]. A. Richards, M. Blek, N.D. Arutyunova, M. Jonson, J. Lakoff va boshqalar kabi mashhur tilshunoslar metaforani o'rganish va uning tildagi o'rni va rolini aniqlashga katta ta'sir ko'rsatdi [7].

Hozirgi zamon tilshunosligida tilga antropotsentrik yondashuvning dominant roli tufayli fanning turli sohalari tizimlari atamasida antropomorf metaforalarni o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. N.D. Arutyunova antropomorfik metafora inson konseptual va og'zaki tizimlarini qurishda, atrof-muhitni tasniflashda, shuningdek, fikrlash va idrok jarayonlarida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [8]

Baku davlat universiteti professori Sevinj Magerramova: "Ma'lumki, metafora qiyoslashga asoslanadi. Inson noma'lumni ma'lum bilan taqqoslashi mumkin va bu uning obyektiv haqiqatga munosabatini ko'rsatadi. Azal-azaldan metaforizatsiya, avvalo, insonning bevosita muhitidan eng taniqli tushuncha va predmetlarni ifodalovchi so'zlarga nisbatan qo'llanilgan" [9] deb ta'kidlaydi.

Inson tomonidan yaratilgan dunyoning metaforik manzarasi, asosan, antropotsentrikdir. Ayrim adabiyotlarda "fiziologik metafora" atamasi ham qo'llaniladi. A. Chudinov fiziologik metafora rus gazetasi sarlavhalari mazmunida ko'p qo'llanilganligini, XX asrning so'nggi o'n yilligi va XXI asrning boshlarida fiziologik metafora, avvalgi davrlardagidek, faol ishlatilganligini ta'kidlaydi [10]. O'zbek matbuoti, xususan, elektron nashrlarda ham sarlavhalar ko'pincha metaforik ma'no ifodalaydi. Ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuot o'quvchiga mavzu yoki xabar mazmuni tezroq yetib borishini, ularning e'tiborini tezroq va keng miqyosda jalb etish uchun ham antropomorfik metaforalardan foydalanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR





Publitsistik matnlar, ayniqsa, o'zining o'qituvchan va ta'sirchan bo'lishi uchun metaforalarga tayanadi. Bu matnlar o'quvchilarni murakkab ijtimoiy va siyosiy masalalarni tushunishga yordam beradigan vosita sifatida xizmat qiladi. Bunda asosiy maqsad axborotni ommaga sodda va tushunarli tarzda yetkazishdir. Metaforalarning bu yerda tutgan o'rni beqiyos, chunki ular murakkab tushunchalarni soddalashtirib, ularni o'quvchilar uchun aniqroq va yaqinroq qiladi. Publitsistik matnlar, xususan, gazeta va jurnallar, ommaviy siyosiy nutqlar, va televideniye kabi ommaviy axborot vositalarida keng qo'llaniladi. Ularning asosiy xususiyatlari orasida axborotni aniq yetkazish, o'quvchilarni ma'lum bir fikrga yo'naltirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish kiradi. Ushbu matnlar ekspressivlikka ega bo'lib, o'z auditoriyasiga hissiy va estetik ta'sir o'tkazishga intiladi. **Lakoff va Jonson** (1980) o'zlarining mashhur asarlarida tilni inson tafakkurini aks ettiruvchi asosiy vosita sifatida ko'rsatadilar. Ularning ta'kidlashicha, metaforalar fikrlash jarayonlarini oddiy va tushunarli tarzda ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, publitsistik matnlar o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish va murakkab tushunchalarni oddiy va aniq tarzda taqdim etish maqsadida ko'pincha metaforalardan foydalanadi.

N.D. Arutyunova ta'kidlaganidek, publitsistik matnlar tilining asosiy xususiyati uning ta'sirchanligidadir, chunki bunday matnlar nafaqat ma'lumot berish, balki auditoriya ustida ma'lum bir ta'sir ko'rsatishni ham ko'zda tutadi (Arutyunova, 1990). Bu ta'sirning samaradorligini oshirishda metaforalar muhim rol o'ynaydi, chunki ular orqali mavhum va murakkab tushunchalar yanada osonroq tushuniladi va idrok etiladi.

J. Fokonye va M. Tyornerning konseptual qorishma nazariyasi, publitsistik matnlar kontekstida turli g'oyalar va tushunchalarni o'zaro integratsiyalash, ular o'rtasida yangi semantic aloqalar o'rnatish hamda yangi manolarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa matnning ta'sirchanligini oshiradi va o'quvchilarni murakkab ijtimoiy va siyosiy masalalarni tushunishga yordam beradi [11]. O'zbek tilshunosligida ham tasviriy vositalar haqida so'z borar ekan, publitsistik matnlardagi tasviriy vositalarning muloqot jarayonidagi o'rni beqiyos bo'lib, bu vositalar orqali o'quvchida hissiy kayfiyat shakllanadi va matnning kognitiv ta'siri oshadi.

Jahon tilshunoslaridan Roman Yakobson (1960) kommunikativ va poetik funksiyalarni ajratib ko'rsatib, tasviriy vositalarning poetik rolini tasdiqlaydi va ularning ko'chma ma'nolar orqali o'quvchiga ta'sirini o'rganadi [12]. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek publitsistik matnlarida metafora qo'llanilishi ommaviy axborot vositalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Antropomorfik metaforalar matnni





chuqurroq anglash va uni ommaga tushunarliroq qilishga yordam beradi. Misol tariqasida o'zbek publitsistik matnlaridan quyidagi jummalarni keltirish mumkin:

“Xalqning ovozi hukumatga yetib bormadi”. – Bu misolda “xalqning ovozi” insoniy bo'lmagan “ovozi yetmaslik” harakati orqali tasvirlangan.

“Demokratiya mamlakatimizda hali endi yurishni o'rganmoqda”. – Bu yerda demokratiya tushunchasi inson sifatida tasvirlanib, “yurishni o'rganish” xatti-harakati unga berilgan. Bu metafora demokratiyaning rivojlanishini obrazli ravishda ifodalaydi va o'quvchiga bu jarayonning hali zaif ekanini tushuntiradi. Bu kabi misollar matnning ta'sirchanligini oshirish bilan birga, o'quvchining ijtimoiy masalalarga nisbatan faol va hissiy munosabatini shakllantiradi. Antropomorfik metaforalar, ayniqsa, siyosiy va ijtimoiy mavzularda hissiy jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu misollarda xalq inson sifatida tasvirlanishi orqali o'quvchi masalaga yanada chuqurroq e'tibor qaratadi va demokratiyaning hozirgi holati va uni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni ifoda etadi. Bu metaforalar qabul qiluvchi auditoriyaning e'tiborini tortish, uni ijtimoiy muammolar haqida o'ylantirish va jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun ishlatiladi. O'zbek tilida antropomorfik metaforalar tilning boyligini va tasviriy kuchini oshiradi. Ular lingvistik vosita sifatida publitsistik matnlarda keng qo'llanilib, matnni tushunarli, ta'sirchan va jozibador qiladi.

XULOSA

Publitsistik matnlar ustida bunday tahlillarni kengroq miqyosda amalga oshirish kerak, chunki metaforalar faqat badiiy matnlar asosida o'rganilsa, bir tomonlama xulosaga kelib qolish mumkin, ularning ilmiy, hatto rasmiy matnlarda qo'llanishini ham o'rganish antropomorfik metaforalarning sosiolingvistik mohiyatini to'la namoyon qilish imkonini beradi. Natijada so'zlarning ko'chma ma'nolari haqidagi ilmiy tasavvurlar, metaforalarning qo'llanilish doirasi kengayib boradi. Ayniqsa, bugun ommaviy axborot vositalari faollashgan bir paytda insonlarning asosiy muloqot maydoni ijtimoiy tarmoqlar bo'lib qoldi. Shu ma'noda publitsistik matnlar va diskurslarni keng miqyosda tadqiq etish o'zbek tili taraqqiyotining bugungi qiyofasini aniqroq ko'rish imkonini beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Александрова Ю.М., Горшунов Ю.В. Концептуальная метафора «человек – животное» в произведениях Джеральда Даррелла // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. статей по материалам XXXII Международной научно-практической конференции. – Новосибирск, 2014. – № 1 (32). – С. 57-62.
2. Александрова Ю.М., Горшунов Ю.В. Антропоморфные метафоры, отражающие профессиональную и социальную специфику жизни человека // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия: Гуманитарные науки. 2017. №09. – С. 95 (95-98).
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/funktsii-antropomorfnoy-metafor-y-v-angloyazychnom-ekonomicheskom-diskurse/viewer>.
4. http://www.rusnauka.com/17_PMN_2014/Philologia/9_172101.doc.htm
5. <https://lektsii.org/12-47199.html>
6. Теория метафоры / Общ. ред. Н.Д. Арутюновой, М.А. Журиной. – М.: Прогресс, 1990.
7. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс / Н.Д. Арутюнова // Теория метафоры / Общ. ред. Н.Д. Арутюновой, М.А. Журиной. – М.: Прогресс, 1990. – С. 5-32.
8. <https://gisap.eu/ru/node/7709>
9. Чудинов А. П. Политическая лингвистика: учебное пособие / А.П. Чудинов. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. пед. ун-та, 2003. – С. 78.
10. Чудинов А. П. Политическая лингвистика: учебное пособие / А.П. Чудинов. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. пед. ун-та, 2003. – С. 78.
11. Fauconnier, G., & Turner M. *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. – New York: Basic Books, 2002.
12. Jakobson R. *Linguistics and Poetics: Closing Statement*. In: *Style in Language*. – Cambridge: MIT Press, 1960.